


2023- yilning yanvar - dekabr oylarida Qashqadaryo viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi – 40167,9 mlrd. so'mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,3 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 39 461,3 mlrd. so'mni (104,3 %), o'rmon xo'jaligi – 596,6 mlrd. so'mni (102,2 %), baliqchilik xo'jaligi – 110,0 mlrd. so'mni (92,7 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Qashqadaryo viloyatining ulushi 9,4 % ni tashkil etdi.



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘shish sur‘ati




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining taqsimlanishi (%)



2023- yilning yanvar - dekabr yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 104,3 % i - dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar, 102,2 % i - o'rmon xo'jaligi, 92,7 % i – baliq xo'jaligi hissasiga to'g'ri keladi.

Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi




2023- yilning yanvar- dekabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Koson (3737,9 mlrd. so'm), Kasbi (3728,6 mlrd. so'm), Kitob (3550,6 mlrd. so'm), Qamashi (3406,4 mlrd. so'm), Nishon (3160,6 mlrd. so'm), Qarshi (3077,4 mlrd. so'm), Yakkabog' (2888,5 mlrd. so'm) va

Chiroqchi (2651,4 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Qarshi shahri (300,6 mlrd. so‘m), Shahrisabz shahri (316,6 mlrd. so‘m) va Dehqonobod tumanini (1568,8 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Viloyat ko‘rsatkichidan (104,3 %) yuqori o‘sish sur‘atlari Ko‘kdala (108,0 %), Muborak (107,7 %), Qarshi shahri (106,5 %), G‘uzor (106,4 %), Nishon (105,8 %), Kitob (105,6 %), Koson (105,5 %), Kasbi (104,0%), Qarshi (103,8%), Dehqonobod (103,7 %), Chiroqchi (102,9 %), Yakkabog‘ (102,3 %), Mirishkor (102,1 %), Qamashi (101,9 %), Shahrisabz (101,7 %), tumanlarida va Shahrisabz shahrida (100,3 %), kuzatildi.

Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘sish sur‘ati




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2023- yilning yanvar- dekabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 38565,3 mlrd. so'mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,2 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari - 15054,0 mlrd. so'mni (104,3 %), chorvachilik mahsulotlari – 23511,3 mlrd. so'mni (104,1 %) tashkil qildi.


Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

39,0 %
Dehqonchilik
mahsulotlari




61,0 %
Chorvachilik
mahsulotlari

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 69,3 % i - dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 25,6 % i - fermer xo'jaliklariga, 5,1 % i - qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)





2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Kasbi tumanida (34,8%), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Shahrisabz shahrida (97,3%), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Nishon tumanida (22,9%) qayd etildi.

Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Shahrisabz shahrida (0,6%), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng kam ulushi Nishon tumanida (43,5%), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Qarshi va Koson tumanida (1,0%) qayd etildi.


Dehqonchilik

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 15054,0 mlrd. soʻmni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,3 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 39,0 % ni tashkil qildi.

Don jami



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari


● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2023- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 816,5 ming tonna don (2022- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 3,4 % ga ko'p) yetishtirildi. Don yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, don yetishtirish umumiy hajmidan 10,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Qashqadaryo viloyati bo'yicha
don yetishtirish
hajmi, tonna




Kartoshka


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



**Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023- yilning yanvar- dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 195,4 ming tonna kartoshka (2022- yilning yanvar- dekabriga nisbatan 5,2 % ga ko'p) yetishtirildi. Kartoshka yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, kartoshka yetishtirish umumiy hajmidan 75,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Qashqadaryo viloyati bo'yicha
kartoshka yetishtirish
hajmi, tonna




Sabzavotlar


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati




Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 559,3 ming tonna sabzavotlar (2022- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 4,8 % ga ko'p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 67,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Qashqadaryo viloyati bo'yicha
sabzavotlar
yetishtirish hajmi, tonna**




Poliz


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 190,7 ming tonna poliz (2022- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 9,9 % ga ko'p) yetishtirildi. Poliz yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, poliz yetishtirish umumiy hajmidan 48,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Qashqadaryo viloyati bo'yicha poliz yetishtirish hajmi, tonna




Mevalar


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqonva tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 177,8 ming tonna mevalar (2022- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 7,3 % ga ko'p) yetishtirildi. Meva yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, meva yetishtirish umumiy hajmidan 40,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Qashqadaryo viloyati bo'yicha
mevalar yetishtirish
hajmi, tonna




Uzum


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 110,0 ming tonna uzum (2022- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 4,2 % ga ko'p) yetishtirildi. Uzum yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, uzum yetishtirish umumiy hajmidan 50,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



Qashqadaryo viloyati bo'yicha
uzum yetishtirish
hajmi, tonna




Chorvachilik



2023- yilning yanvar- dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 23511,3 mlrd. so'mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,1 % ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 61,0 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko'rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko'payishiga, ichki iste'mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to'ldirishga imkon yaratdi.




2023- yilning yanvar- dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 325,9 ming tonna go'sht (2022- yilning yanvar- dekabriga nisbatan 3,3 % ga ko'p), 1306,8 ming tonna sut (2,3 % ga ko'p), 567,2 mln.dona tuxum (4,2 % ga ko'p), 268,7 ming dona qora ko'l teri (3,7 % ga ko'p) yetishtirildi va 5026,4 tonna baliq (7,8 % ga kam) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)

Hajmi, ming t.




O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi


- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023- yilning yanvar- dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 325,9 ming tonna go'sht (2022- yilning yanvar- dekabriga nisbatan 3,3 % ga ko'p) yetishtirildi. Go'sht yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht yetishtirish umumiy hajmidan 94,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




Qashqadaryo viloyati bo'yicha go'sht (*tirik vaznda*) yetishtirish hajmi, tonna




Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1306,8 ming tonna sut (2022- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 2,3 % ga ko'p) yetishtirildi. Sut yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmidan 96,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Qashqadaryo viloyati bo'yicha sut yetishtirish hajmi, tonna




Tuxum


Hajmi, mln.dona



O'sish sur'ati



**Yetishtirilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023- yilning yanvar- dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 567,2 mln. dona tuxum (2022- yilning yanvar- dekabriga nisbatan 4,2 % ga ko'p yetishtirildi. Tuxum yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiy hajmidan 63,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




Qashqadaryo viloyati bo'yicha olingan tuxum hajmi, ming dona




Baliq


Hajmi,tonna



O'sish sur'ati




**Yetishtirilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**




2023- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 5026,4 tonna (2022- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 7,8 % ga kam) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 55,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



Qashqadaryo viloyati bo'yicha
ovlangan baliq
hajmi, tonna



Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2024- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 7,2 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 91,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 9,4 % i fermer xo'jaliklariga, 84,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 6,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, otlar umumiy sonidan 17,7 % i fermer xo'jaliklariga, 78,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 4,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi. Shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 9,4 % i fermer xo'jaliklariga, 67,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 22,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

2024- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 728,2 mingtaga yetdi.


2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni - 40,5 ming boshga (2,4 %) ko'paydi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



**Bosh sonining
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 91,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



Qashqadaryo viloyati
bo'yicha yirik shoxli
qoramollarning umumiy
bosh soni, ming bosh




2024- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, sigirlarning umumiy bosh soni 571,4 mingtaga yetdi.


2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni - 13,4 ming boshga (2,4 %) ko'paydi.

Sigirlar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati




**Bosh sonining
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, jami sigirlarning 88,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelmoqda.



Qashqadaryo viloyati bo'yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh




2024- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, qo'y va echkilarining umumiy bosh soni 5 027,4 mingtaga yetdi.


2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilar bosh soni - 128,7 mingtaga (2,6 %) ko'paydi.

Qo'y va echkilar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



**Bosh sonining
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, qo'y va echkilar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami qo'y va echkilarining 84,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



Qashqadaryoviloyatibo'yicha
qo'y va echkilarning
umumiy bosh soni,
ming bosh




2024- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, otlarning umumiy bosh soni 37,0 mingtaga yetdi.


2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni - 1507 boshga (4,2 %) ko'paydi.

Otlar


Soni, bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar, xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, jami otlarning 78,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ta'kidlash lozim.



**Qashqadaryo viloyati
bo'yicha otlarning
umumiy bosh soni, bosh**




2024- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, parrandalarning umumiy bosh soni 6 629,6 mingtaga yetdi.


2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni - 405,0 ming boshga (6,5 %) ko'paydi.

Parrandalar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 67,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.



Qashqadaryo viloyati bo'yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• 75-221-34-46
• 75-220-04-15